# ERNEST HEMINGUEY VA ODIL YOQUBOV HIKOYALARIDA BADIIY DETALNING XARAKTER YARATISHDAGI O‘RNI

**Parpiyeva Moxiraxon Inom qizi**
Farg‘ona davlat universiteti mjustaqil izlanuvchisi
parpiyevamoxira1991@gmail.com

***Annotatsiya***

*Mazkur maqolada Ernest Heminguey va Odil Yoqubov hikoyalarida badiiy detalning xarakter yaratishdagi funksional ahamiyati qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etiladi. Badiiy detalning tasviriy, portret, peyzaj, ramziy, etnomadaniy hamda psixologik turlari qahramon xarakterini individuallashtirish, umumlashtirish va psixologik jihatdan ochib berishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Ernest Heminguey hikoyalarida badiiy detallar asosan ramziy va psixologik yuklamaga ega bo‘lib, insonning ichki kurashi va matonatini ifodalashga xizmat qilsa, Odil Yoqubov hikoyalarida milliy xarakter, urush davri fojealari hamda etnomadaniy qadriyatlarni yoritishda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada ikki adib ijodidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, badiiy detalning xarakter yaratishdagi poetik imkoniyatlari ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *badiiy detal, xarakter, psixologizm, portret detal, ramziy detal, etnomadaniy detal, Ernest Heminguey, Odil Yoqubov, hikoya janri.*

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida badiiy detal masalasi poetikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Badiiy asarning estetik ta’sirchanligi, obrazlarning hayotiyligi va xarakterlarning mukammalligi ko‘p jihatdan yozuvchi tomonidan qo‘llangan detallar tizimiga bog‘liqdir. Badiiy detal voqelikning kichik, ammo mazmunan muhim bo‘lagini aks ettirib, asarning g‘oyaviy-badiiy yukini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli adabiyotshunoslikda detal ko‘pincha asar mazmunini va qahramon xarakterini ochib beruvchi “kalit” sifatida talqin qilinadi. Professor B. Sarimsoqovning ta’kidlashicha, badiiy obraz voqelikning oddiy nusxasi emas, balki ijodkorning estetik ideali asosida qayta ishlangan va badiiy umumlashtirilgan shaklidir. Ana shu umumlashtirish jarayonida detal muhim poetik vazifani bajaradi. Detal yordamida yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalari, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeini ko‘rsatadi. Badiiy detal muammosi rus va jahon adabiyotshunosligida V.G.Belinskiy, M.Baxtin, Y.Lotman, L.Ginzburg, V.Xalizev kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. O‘zbek adabiyotshunosligida esa B.Sarimsoqov, N.Hotamov, A.Rasulov, Y.Solijonov, Q.Yo‘ldoshevlarning ilmiy qarashlarida mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Hikoya janri o‘zining ixchamligi bilan ajralib turadi. Shu sababli hikoyada xarakter yaratishda har bir detal muhim ahamiyat kasb etadi. Ernest Heminguey va Odil Yoqubov hikoyalari bu jihatdan alohida e’tiborga loyiqdir. Har ikki yozuvchi qahramon xarakterini ochib berishda detaldan keng foydalangan bo‘lsa-da, ularning estetik qarashlari, milliy-madaniy muhitlari va ijodiy uslublari turlicha bo‘lganligi sababli detallar tizimi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ernest Heminguey XX asr Amerika adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning hikoyalari lakonik uslub, yashirin ma’no va “aysberg nazariyasi” bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida detal ko‘pincha aytilmagan ma’nolarni ifodalovchi vosita vazifasini

bajaradi. Odil Yoqubov esa o‘zbek nasrida milliy xarakter yaratish mahorati bilan tanilgan adib bo‘lib, uning hikoyalarida detal xalq turmushi, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Ernest Heminguey va Odil Yoqubov hikoyalarida badiiy detalning xarakter yaratishdagi funksiyalari hozirgacha alohida qiyosiy-tipologik aspektda yetarlicha o‘rganilmagan. Tadqiqot natijalari badiiy detal poetikasini chuqurroq anglashga hamda jahon va o‘zbek adabiy aloqalarini yoritishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy manbalarini Ernest Hemingueyning “Old Man at the Bridge”, “The Killers”, “A Clean, Well-Lighted Place”, “Big Two-Hearted River”, “Nobody Ever Dies” hamda Odil Yoqubovning “Yaxshilik”, “Tilla uzuk”, “Vido”, “Matluba” hikoyalari tashkil etadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, tavsifiy va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida ikki adib hikoyalarida qo‘llangan badiiy detallarning umumiy va milliy xususiyatlari aniqlashtirildi. Struktur-semantik metod asosida detallarning matndagi funksional vazifalari tahlil qilindi. Tavsifiy metod orqali esa qahramon xarakterini ochib beruvchi detallar guruhlarga ajratilib, ularning poetik xususiyatlari yoritildi. Tadqiqot davomida badiiy detallar quyidagi mezonlar asosida tasniflandi: portret detallar; tasviriy detallar; peyzaj detallar; ramziy detallar; etnomadaniy detallar; psixologik detallar. Mazkur tasnif xarakter yaratishdagi funksional ahamiyatidan kelib chiqib ishlab chiqildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Portret detallarning xarakter yaratishdagi vazifasi. Portret detal qahramonning tashqi qiyofasi orqali uning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi. Adabiyotshunos A.Rasulov ta’kidlaganidek, portret qahramon qalbini yoritishi va xarakter yo‘nalishini belgilashi lozim. Ernest Hemingueyning “Ko‘prikdagi chol” hikoyasida bosh qahramonning “gardishli ko‘zoynak taqqan, juldur kiyingan chol” sifatida tasvirlanishi uning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki urush tufayli izdan chiqqan hayotini ham ifodalaydi. Muallif atigi bir necha detal yordamida qahramonning yoshi, ijtimoiy mavqei va ruhiy holatini kitobxonga yetkazadi. Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasida Munavvar obrazining “xiyol mayus qora ko‘zlari”, “o‘ychan nigohi” va “g‘amgin chehrasi” orqali uning ichki iztiroblari ochib beriladi. Urush tufayli hijron azobini boshidan kechirayotgan o‘zbek ayolining ruhiy olami aynan portret detallar vositasida yoritilgan. Demak, har ikki yozuvchi portret detallardan qahramonning psixologik holatini tasvirlash vositasi sifatida foydalanadi. Ramziy detallarning poetik funksiyasi. Ramziy detal asardagi voqea-hodisalar va qahramon xarakterini chuqurroq anglashga xizmat qiladigan badiiy vositadir. Hemingueyning “Ko‘prikdagi chol” hikoyasida ko‘prik detalining ramziy mohiyati alohida e’tiborga loyiq. Ko‘prik o‘tmish va kelajak, hayot va o‘lim, xavf va xavfsizlik oralig‘idagi chegarani ifodalaydi. Keksa cholning ko‘prikdan o‘ta olmasligi uning fojeali taqdirini anglatadi. “Big Two-Hearted River” hikoyasida baliq va daryo detallari qahramonning ruhiy tiklanish ramzi sifatida talqin qilinadi. Nik Adams urush dahshatlaridan keyin tabiat qo‘ynida ruhiy muvozanat topishga harakat qiladi. Daryodagi baliqlar esa hayot davomiyligi va umid ramzidir.

Odil Yoqubovning “Tilla uzuk” hikoyasida uzuk muhabbat va sadoqat ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Kovak olma daraxti esa qahramonning puchga chiqqan orzularini ifodalaydi. Bu detallar asar g‘oyasini ochishda muhim poetik vazifani bajaradi. Etnomadaniy detallarning milliy xarakter yaratishdagi o‘rni. Etnomadaniy detallar xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini aks ettiradi. Heminguey hikoyalarida konyak, pivo, baliq ovlash, kafe kabi detallar G‘arb madaniyatining muhim belgilarini ifodalaydi. Masalan, “A Clean, Well-Lighted Place” hikoyasidagi kafe muhiti yolg‘izlik va ma’naviy bo‘shliqni aks ettiruvchi makon sifatida tasvirlanadi.

Odil Yoqubov hikoyalarida esa do‘ppi, chillaki uzum, so‘ri, qatiq, mahalla muhiti kabi detallar milliy kolorit yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Yaxshilik” hikoyasidagi chillaki uzum o‘zbek onasining mehr-muhabbatini ifodalovchi muhim detal hisoblanadi. Etnomadaniy detallar orqali yozuvchilar nafaqat qahramon xarakterini, balki butun bir xalqning ma’naviy qiyofasini ham yaratadilar. Psixologik detallarning xarakter talqinidagi ahamiyati. Psixologik detal qahramonning ichki kechinmalarini bevosita ifodalovchi vosita hisoblanadi. Bunga sukut, pauza, nigoh yo‘nalishi, tovush o‘zgarishi va harakat kiradi. Hemingueyning “Oq fillarga o‘xshash tepaliklar” hikoyasida qizning sukuti uning ichki qarama-qarshiligini va chorasizligini ifodalaydi. Muallif o‘zining “aysberg nazariyasi”ga muvofiq ravishda qahramon hissiyotlarini bevosita emas, balki sukut orqali ko‘rsatadi. “Qotillar” hikoyasida Ole Andersonning devorga tikilib qolishi uning taqdir oldidagi ojizligini ifodalovchi psixologik detal sifatida namoyon bo‘ladi. Odil Yoqubovning “Matluba” hikoyasida Nusratjonning osmonga tikilishi rad javobidan keyingi ruhiy tushkunligini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Yaxshilik” hikoyasidagi pochtachining sukuti urush dahshatlari va fojeaviy xabar og‘irligini ifodalaydi.

## XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Ernest Heminguey va Odil Yoqubov hikoyalarida badiiy detal xarakter yaratishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq yozuvchilarning estetik qarashlari va milliy muhitlari turlicha bo‘lgani sababli detallar tizimi ham farqlanadi. Heminguey ijodida detal ko‘proq ramziy va psixologik yuklamaga ega. U qahramon ruhiyatini yashirin shaklda ifodalashga intiladi. Odil Yoqubov esa detal orqali milliy xarakter va ijtimoiy muhitni yoritishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shunga qaramay, har ikki yozuvchi uchun detal qahramonning ichki dunyosini ochuvchi asosiy poetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

## REFERENCES

1.Dieguez, S. (2010). “A man can be destroyed but not defeated”: Ernest Hemingway's near-death experience and declining health. In J. Bogousslavsky & M. G. Hennerici (Eds.), Neurological Disorders in Famous Artists – Part 3 (pp. 174–206). Karger. https://doi.org/10.1159/000311201

2.Fadhil, M. J. (2019). The image of hero in Hemingway's The Old Man and the Sea. Journal of Al-Frahedis Arts, 11(39), 623–632. https://doi.org/10.51990/2228-011-039-028

3.Golsuorsi, J. (2010). Adabiyotda xarakter yaratish. In O. Sharafiddinov (Tarj.), Jahon adiblari adabiyot haqida (81–89-betlar). Ma’naviyat.

4.Hemingway, E. (1987). The Complete Short Stories of Ernest Hemingway. Finca Vigia Edition.

5.Hemingway, E. (1952). The Old Man and the Sea. Charles Scribner’s Sons.

6.Hotamov, N., & Sarimsoqov, B. (1979). Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. O‘qituvchi.
7.Lotman, Y. M. (1998). Struktura xudojestvennogo teksta. Iskusstvo-SPB.
8.Rasulov, A. (2007). Badiiylik – bezavol yangilik. Sharq.
9.Sarimsoqov, B. I. (2004). Badiiylik asoslari va mezonlari. Fan.
10.Solijonov, Y. (2009). Haqiqatning sinchkov ko‘zlari. Ma’naviyat.
11.Volkova, L. A. (2016). Funktsii portreta v literaturnom proizvedenii (na materiale romana F.M. Dostoevskogo “Prestuplenie i nakazanie”). Folio.